O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI

"TASDIQLAYMAN"
Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti
_______ O.Sh.Bazarov
"___"_________2024 yil

Ro‘yhatga olindi № 05/05/014.5
"27" iyun 2024 yil

# "AUDIT"
## FANINING
## O'QUV DASTURI

**Bilim sohasi:** 200 000 – Ijtimoiy soha, iqtisod va huquq

**Ta’lim sohasi:** 230 000 – Iqtisod

**Ta’lim yo‘nalishi:** 5230600 -"Moliya va moliyaviy texnologiyalar" (sirtqi)

**Qarshi-2024 y**

| Fan/modul kodi | O’quv yili | Semestr | ECTS - Kreditlar |
|---|---|---|---|
| AUD 4209 | 2024-2025 | 8-10 | 9 |
| **Fan/modul turi** | **Ta’lim tili** | | **Haftadagi dars soatlari** |
| Umumkasbiy fanlar | O’zbek/rus | | 4 |

| | Fanning nomi | Auditoriya mashg’ulotlari (soat) | Mustaqil ta’lim (soat) | Jami yuklama (soat) |
|---|---|---|---|---|
| **1.** | **Audit** | 30 | 240 | 270 |

**2.**

## I. Fanning mazmuni

Audit fanini o’qitishdan maqsadi – talabalarda xo'jalik yurituvchi sub’ektlarning moliyaviy-xo'jalik faoliyatini auditorlik tekshiruvidan o'tkazish, moliyaviy hisobot bo'yicha auditorlik xulosasini rasmiylashtirish, auditning turdosh xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha nazariy va amaliy bilimlarni shakllantirishdan iborat.

Fanning vazifasi – talabalarga O'zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini tashkil qilishning huquqiy va tashkiliy asoslari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarorlarida belgilangan vazifalarni o‘rgatish, auditorlik kasbiga malakaviy va axloqiy talablar, auditda muhimlik tushunchasi va auditorlik riski, auditorlik tekshirishni rejalashtirish, auditorlik tekshirish vaqtida buxgalteriya hisobi va ichki nazorat tizimini o‘rganish hamda baholash, auditorlik tekshiruvlarida firibgarlik holatlarini aniqlash, auditorlik dalillar, ekspert ishlaridan va boshqa auditorlik tashkiloti ma’lumotlaridan foydalanish, auditorlik tanlash, auditorlik hisoboti va xulosasi; uzoq muddatli aktivlar auditi, joriy aktivlar auditi, majburiyatlar auditi, xususiy kapital hamda moliyaviy auditi haqidagi nazariy-amaliy bilimlarni o‘rgatishdan iboratdir.

## II. Asosiy nazariy qism (ma’ruza mashg’ulotlari)

### II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

### 1-mavzu. Auditga umumiy tavsif

Auditning mohiyati va rivojlanish tarixi. Auditning maqsadi va vazifalari. Auditning rivojlanish bosqichlari. Tasdiqlovchi audit. Maqsadli sistemali audit. Tavakkalchilikka asoslangan audit. O’zbekiston Respublikasining moliyaviy nazorat tizimida auditning tutgan o’rni. Audit va buxgalteriya hisobining farqli jihatlari. Auditning turlari va shakllari. Moc keluvchanlik auditi. Operatsion audit. Moliyaviy hisobot auditi. Ichki audit. Tashqi audit. Audit xizmatlari bozorining rivojlanish istiqbollari tahlili.

### 2-mavzu. Auditning normativ-huquqiy asoslari.

“Auditorlik faoliyati to‘g‘risida”gi qonun va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar sharhi. 0 ‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 19 sentyabrdagi “0 ‘zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3946-son Qarori, 0 ‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 fevraldagi “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ- 4611-con Qarori, 0 ‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 4 avgustdagi “Auditorlarni sertifikatlashtirish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5210-son Qarori. Audit standartlari haqida tushuncha, ulaming ahamiyati va turlari tavsifi. Auditorlik tashkilotlari faoliyatini tashkil etish tartibi. Auditorlik kasbiga qo‘yiladigan malakaviy talablar. Auditor malaka sertifikatini berish, amal qilish muddatini uzaytirish, qayta rasmiylashtirish va dublikatini berish tartibi. Auditorlik faoliyatini tartibga solishda professional tashkilotlar roli.

| | |
|---|---|
| | **3-mavzu. Korporativ boshqaruv**<br>Korporativ boshqaruvning mohiyati. Korporativ boshqaruvning maqsadi. Sarbeyns-Oksli qonuni va uning ahamiyati. Korporativ boshqaruv tamoyillari. Tashqi auditorlar uchun korporativ boshqaruvning ahamiyati. Korporativ boshqaruv kodeksi. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD). Samaradorlik. Hisobdorlik. Javobgarlik. Kengash tarkibi. Risk qo‘mitasi. Audit qo‘mitasi. Ichki audit. Ichki nazorat xizmatini tashkil qilish shakllari. Ichki audit turlari. Ichki audit natijalarini umumlashtirish va baholash.<br><br>**4-mavzu. Auditorning kasb etikasi**<br>Etika haqida tushuncha. Auditning axloq kodeksi va uning maqsadi. Axloq kodeksining asosiy talablaril Axloq kodeksi tamoyillari. Auditor axloqi (etikasi). Vijdonlilik va ob’ektivlik. Professional kompetentlilik. Maxfiylik. Omma uchun axborotni taqdim etish. Boshqa auditorlar bilan munosabatlar. Auditorlik tashkiloti va auditorlaming mustaqilligi. Umuminsoniy ahloq qoidalari va ma’naviy me’yorlarga rioya qilish. Auditorning xolisligi va professional kompetentlik. Auditor ishlarining sifatini nazorat qilish. Dastlabki, joriy va keyingi nazorat. Jarimalar. A’zolikni to‘xtatib turish. A’zolikdan chiqish.<br><br>**5-mavzu. Auditorlik tekshiruvi jarayonida ichki nazorat tizimini o‘rganish hamda baholash**<br>“Ichki nazoratdagi kamchiliklar yuzasidan boshqaruv yuklatilgan shaxslar va rahbariyat bilan axborot almashinuvi” nomli 265-son AXS, “Xizmat ko'rsatuvchi tashkilot xizmatlaridan foydalanadigan tadbirkorlik sub’ektlari auditini o'tkazish jihatlari” nomli 402-son AXS, “Audit o‘tkazish jarayonida aniqlangan buzib ko‘rsatishlarni baholash” nomli 450-son AXS bo‘yicha tekshiriladigan mijoz faoliyatini o‘rganish. Buxgalteriya hisobining tashkil etilishini o‘rganish. Korxona buxgalteriyasining tashkiliy tuzilmasi, tashkiliy tuzilmada ko‘rsatiigan har bir xodimning vazifalari va mas’uliyatlarining bayoni. Hisob siklining muhim uchastkalari bo‘yicha hujjatlar aylanish reja-grafigini tekshirish. Korxona hisob siyosatini o‘rganish. Ichki nazorat tizimini tashkil etishda qo‘yiladigan maqsadlar. Ichki nazorat tizimining mohiyati va uni o‘rganishdan maqsad. Ichki nazorat tizimining elementlari. Ichki nazorat tizimini o‘rganish va baholashni hujjatlashtirish. Ichki nazorat tizimining tarkibiy qismlari. Nazorat riskini baholash. Inventarizatsiya jarayoni.<br><br>**6-mavzu. Auditorlik riski**<br>“Muhim buzib ko‘rsatishlar risklarini tadbirkorlik sub’ektini va uning muhitini bilish asosida aniqlash va baholash” nomli 315-son AXS. Auditorlik riski va uning yuzaga kelish sabablari. Auditorlik risklarning maqbul to‘plami. Auditorlik risklar maqbul to‘plamining elementlarini baholash. Nazorat riski. Ajratib bo‘lmaydigan risk. Auditorlik riskini aniqlash modeli. Auditorlik riskigata’sir qiluvchi omillar. Riskni aniqlash usullari.<br><br>**7-mavzu. Auditorlik tekshiruvini rejalashtirish**<br>“Moliyaviy hisobot auditini rejalashtirish” nomli 300-son AXSga muvofiq auditorlik tekshiruvini rejalashtirishning tamoyillari va bosqichlari. Auditorlik tekshiruviga mijozni jalb qilish va dastlabki rejalashtirish. Audit shartnomasi mazmuni va uning shartlarini kelishish xususiyatlari. Audit umumiy rejasi va audit |

dasturini tuzish tartibi. Rejalashtirish jarayoni. Oldindan kelishuv tadbirlari. Faoliyat uzluksizligi to‘g‘risida amallarni bajarish. Axloqiy talablarga muvofiqligini baholash. Rejalashtirish jarayoni. Audit strategiyasini ishlab chiqish. Oraliq va yakuniy audit. Firibgarlik va xato. Moliyaviy hisobotlar auditi uchun AXS-220 bo‘yicha sifat nazorati. “Auditni hujjatlashtirish” nomli 230-son AXS bo'yicha auditni hujjatlarn. Hujjatlar turlari. “Moliyaviy hisobot auditini rejalashtirish va o‘tkazishda muhimlik” nomli 320--son AXS.

**8-mavzu. Auditorlik dalillar**

“Auditorlik dalillari” nomli 500-son AXS, “Auditorlik dalili - muayyan moddalami maxsus ko‘rib chiqish” nomli 501-son AXS, “Tashqi tasdiqnomalar” nomli 505-son AXS, “Dastlabki audit kelishuvlari - boshlang'ich qoldiqlar” nomli 510-son AXSga asosan auditorlik dalillarining mohiyati va uning ishonchliligini belgilovchi mezonlar. Ekspert ishlaridan va boshqa auditor ishi natijalaridan dalil sifatida foydalanish xususiyatlari. Auditorlik tekshiruvi bosqichlarida dalillami to’plash tartibi. Xo‘jalik sub’ektlari tomonidan tekshiriladigan hujjatlarni auditorlarga to‘liq hajmda taqdim etilishini ta’minlash tartibi. Dalillami to‘plashda moliyaviy hujjatlardagi nomuvofiqliklami aniqlash ketma-ketligi. Tashqi auditor tomonidan ichki audit xizmatidan foydalanish mumkin boTgan holatlar tavsifi.

**9-mavzu. Tahliliy amallar**

Auditning xalqaro standartlariga muvofiq tahliliy amallarning mazmuni va ulami qoMlash maqsadlari. Tahliliy amallar turlari va ularning tavsifi. Auditorlik tekshiruvi bosqichlarida tahliliy amallarni bajarish tartibi va ketma- ketligi. Tahliliy amallar natijalaridan foydalanish va ular samaradorligini baholash xususiyatlari. Auditorlik tanlash mazmuni va uni xalqaro standartlar asosida amalga oshirish tartibi. Auditorlik tekshiruvida firibgarliklarga nisbatan tahliliy amallarni qoTlash tavsifi. Buxgalteriya boMimlari bo‘yicha tahliliy amallarning qoMlanilishi.

**10-mavzu. Auditorlik tekshiruvi natijalarini sharhlash va yakunlash**

“Hisobot tuzilgan sanadan keyingi o‘zgarishlar” nomli 560-son AXS. Auditorlik xulosasiga o‘zgarish kiritadigan va kiritmaydigan hodisalar. Moliyaviy hisobot sanasi va auditorlik tekshiruvi sanasi. Moliyaviy hisobotni tuzatish yoki oshkor qilish. Moliyaviy hisobotga hali kiritilmagan yoki oshkor qilinmagan tasdiqnomalar. Boshqaruv tizimlarini o‘rganish. Ta’sischilar umumiy yig‘ilish va direktorlar yig‘ilishlarining bayonnomalarini o‘qish. Buxgalteriya hisobi, byudjet, prognoz, pul oqimi, boshqaruv hisobi va oraliq ma’lumotlar. Hisobotni tuzishda uzluksizlik tamoyili.

**11-mavzu. Auditorlik xulosasi**

Auditorlik xulosasi, uning mazmun-mohiyati va turlari. Auditorning maqsadi. Moliyaviy hisobot to‘g‘risida fikrni shakllantirish. Yozma hisobot berish. Auditorning javobgarligi. Modifikatsiyalangan va modilikatsiyalanmagan fikr berish. Auditorning moliyaviy hisobot auditi bilan bog‘liq majburiyatlari. Auditning rejalashtirilgan koMami va vaqti. Auditorlik tekshiruvi bilan bogMiq ichki ndzoratga boTgan yondashuv va auditorlik tekshiruvini amalga oshirish tartibi. Auditdan olingan muhim xulosalar. Auditorlik tekshiruvi paytida yuzaga kelgan jiddiy kamchiliklar. Yozma tasdiqnomalar. Auditor mustaqilligi masalalari.

| | |
|---|---|
| | **12-mavzu. Moliyaviy hisobotni qayta ko‘rib chiqish**<br>“Moliyaviy hisobotlarni taqdim etish” nomli 1-son BHXS. Moliyaviy hisobotning shakllari va taqdim qilish tartibi. “Zaxiralar” nomli 2-son BHXS. Zaxiralarni baholash usullari. “Pul oqimi to‘g‘risidagi hisobot” nomli 7-son BHXS. Operatsion faoliyat. Investitsion faoliyat. Moliyaviy faoliyat. “Hisobot sanasidan keyingi hodisalar” nomli 10-son BHMS. Hisobot sanasidan keyin yuzaga keladigan o‘zgarishlar va hisobotga kiritish yoki kiritmaslik tartibi. “Alohida moliyaviy hisobotlar” nomli 27-son BHXS. Sho”ba korxona, uyushgan korxona, qo‘shma korxonalarning moliyaviy hisobotlarini tuzish tartibi. “Uyushgan va qo‘shma korxonalarga investitsiyalar” nomli 28-son BHXS. Sho”ba korxona, uyushgan korxona, qo‘shma korxonalarga qilingan investitsiyalar. “Baholangan majburiyatlar, shartli aktivlar va shartli majburiyatlar” nomli 37-son BHXS. Rezervning buxgalteriya hisobidagi mohiyati, majburiyat va aktivning qiymat oMchovi. “Nomoddiy aktivlar” nomli 38-sonli BHMS. Nomoddiy aktivning ta’rifi, tan olish va ularga amortizatsiya hisoblash tartibi. “Moliyaviy instrumentlar: tan olish va baholash” nomli 39- sonli BHMS. Moliyaviy instrumentlarni tan olish va iqtisodiy ta’rifi. Moliyaviy aktiv va moliyaviy majburiyatlarni tan olish tartibi. “Biznesni birlashtirish" nomli 3-sonli MHXS. Bozor bahosida sotish yoki sotib olish, sotishdan daromad yoki xarajat. “Konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobotlar” nomli 10- sonli MHXS. Qo’shma va sho“ba xo‘jalik korxonalari moliyaviy hisobotlarini tuzish. “Xaridorlar bilan tuzilgan shartnomalar bo'yicha tushum” nomli 15- sonli MHXS. Daromadni tan olish tartibi. Majburiyatni tan olish va buzilishi.<br><br>**13-mavzu. Ta’minot jarayoni auditi**<br>0‘zbekiston Respublikasining normativ-huquqiy hujjatlari va xalqaro standartlar asosida ta’minot jarayoni auditini tashkil qilish va tan olishda qo‘yilgan talablar. Asosiy vositalar harakatiga doir muomalaiami hujjatlashtirish, schyotlarda aks ettirishning to‘g‘riligini tekshirish. Nomoddiy aktivlar harakati hisobi to‘g‘riligini tekshirish. Tovar-moddiy zaxiralar kirimi hisobini tekshirishning xususiyatlari. Tovar-moddiy zahiralarni kirim qilish va ishlab chiqarishga sarflash vaqtida baholashning to‘g‘riligini tekshirish.<br><br>**14-mavzu. Ishlab chiqarish jarayoni auditi**<br>0‘zbekiston Respublikasi me’yoriy hujjatlari va xalqaro standartlar asosida ishlab chiqarish jarayonining mazmuni. Ishlab chiqarish jarayoni auditining maqsadi, vazifalari va axborot manbalari. Xarajatlarni to‘g‘ri rejalashtirish va tarkibini shakllantirish. Ishlab chiqarish xarajatlari auditini o‘tkazishni rejalashtirish. Ishlab chiqarish xarajatlari auditini o‘tkazish tartibi. Tekshiruv jarayonida olingan ma’lumotlar asosida ishlab chiqarish xarajatlari auditi natijalarini umumlashtirish.<br><br>**15-mavzu. Mehnat haqi hisobi va to’lash jarayoni auditi**<br>Xodimlar bilan hisob-kitoblar auditining me’yoriy asoslari. Aktsiodorlik jamiyatlarida mehnat haqi bo’yicha hisob-kitoblar auditining maqsadi, vazifalari va manbalari. Mehnat haqi bo’yicha hisob-kitoblar auditini rejalashtirish bosqichi. Xodimlar bilan mehnat haqi va boshqa muomalalar bo’yicha hisob-kitoblarni tekshirish.<br>**16-mavzu. Majburiyatlar auditining xususiyatlari**<br>Majburiyatlar auditining maqsadi, vazifalari va ma’iumot manbalari. Mol etkazib beruvchi va pudratchilar bilan hisoblashish muomalalari auditi. Xaridor va buyurtmachilar bo‘yicha majburiyatlar auditining xususiyatlari. Xodimlar bilan |

mehnat haqi va boshqa muomalalar bo‘yicha hisob-kitoblami tekshirish. Byudjet va byudjetdan tashqari fondlarga to‘lovlar bo‘yicha majburiyatlar auditi. Bank kreditlari bo‘yicha majburiyatlar auditi. Baholangan va shartli majburiyatlar auditining xususiyatlari.

### I7-mavzu. Xususiy kapital auditi

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari va auditning xalqaro standartlari asosida xususiy kapitalni shakllantirish, xususiy kapital auditining maqsadi, vazifalari va ma’iumot manbalari. Ustav kapitali auditining xususiyatlari. Ta’sis hujjatlarini tekshirish tartibi. Qo‘shilgan va rezerv kapitali auditini o‘tkazish tartibi. Taqsimlanmagan foydaning shakllanishi va taqsimlanishining auditi. Xususiy kapital auditi natijalarini hujjatlashtirish va baholash tartibi

### 18-mavzu. Moliyaviy natijalar auditi

Moliyaviy natijalar auditining maqsadi, vazifalari va ma’iumot manbalari. Mahsulot (ish, xizmatjlami sotilishi va undan ko‘rilgan moliyaviy natijalar auditining xususiyatlari. Davr xarajatlari auditi. Asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlarni tekshirish tartibi. Moliyaviy faoliyat bo‘yicha daromadlar va xarajatlar auditi. Yakuniy moliyaviy natijalar auditining xususiyatlari.

## III. Amaliy mashg’ulotlar buyicha ko’rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg‘ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:
1- mavzu. Auditga umumiy tavsif
2- mavzu. Auditning normativ-huquqiy asoslari.
3- mavzu. Korporativ boshqaruv
4- mavzu. Auditorning kasb etikasi
5- mavzu. Auditorlik tekshiruvi jarayonida ichki nazorat tizimini o‘rganish hamda baholash
6- mavzu. Auditorlik riski
7-mavzu. Auditorlik tekshiruvini rejalashtirish
8-mavzu. Auditorlik dalillar
9-mavzu. Tahliliy amallar
10-mavzu. Auditorlik tekshiruvi natijalarini sharhlash va yakunlash
11-mavzu. Auditorlik xulosasi
12-mavzu. Moliyaviy hisobotni qayta ko‘rib chiqish
13-mavzu. Ta’minot jarayoni auditi
14-mavzu. Ishlab chiqarish jarayoni auditi
15-mavzu. Mehnat haqi hisobi va to’lash jarayoni auditi
16-mavzu. Majburiyatlar auditining xususiyatlari
I7-mavzu. Xususiy kapital auditi
18-mavzu. Moliyaviy natijalar auditi

## IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Auditga umumiy tavsifi.
2. Auditorlik faoliyatining me'yoriy - huquqiy asoslari.
3. Auditning xalqaro standartlari.
4. Auditorning kasb etikasi.
5. Auditorlik tekshiruvini rejalashtirish.
6. Auditorlik tekshiruvida muhimlik va risk.
7. Auditorlik tekshiruvida firibgarlikni aniqlash.
8. Auditorlik tekshiruvi vaqtida ichki nazorat tizimini o'rganish hamda baholash.
9. Auditorlik dalillar.
10. Tahliliy amallar.
11. Auditorlik tanlash.
12. Auditorlik tekshiruvining yakuniy bosqichi.
13. Auditorlik tekshiruvlar natijalarini umumlashtirish va baholash.
14. Auditorlik hisoboti va uning tarkibi.
15. Auditorlik xulosasi va uning turlari.
16. Ta'minot jarayoni auditi.
17. Ishlab chiqarish jarayoni auditi.
18. Mehnat haqi hisobi va to'lash jarayoni auditi.
19. Ustav kapitalini tekshirishning maqsad va vazifalari
20. Xususiy kapital shakllanishi auditi.
21. Ta'sischilar bilan hisoblashishlar auditi.
22. Qo'shilgan kapitalni tekshirish.
23. Zahira kapitalini tekshirish.
24. Taqsimlanmagan foydani tekshirish.
25. Mahsulotlarni sotish va moliyaviy natijalarning o'zaro bog'liqligi auditi.
26. Xaridorlar va buyurtmachilar bilan hisob-kitoblar auditi.
27. Mahsulot sotishdan olingan yalpi foydani tekshirish.
28. Asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlarni tekshirish.
29. Yakuniy moliyaviy natija auditi.
30. O'zbekiston Respublikasi moliyaviy nazorat tizimida auditning tutgan o'rni.
31. Auditorlik tashkilotlarining huquqlari, majburiyatlari va javobgarliklari.
32. Auditorlik tashkilotlarining professional xizmatlari.
33. Auditorlik tekshiruvi ishchi dasturi.
34. Auditorlik tashkilotining ish hujjatlari.
35. Auditorlik dalillari.
36. Nomoddiy aktivlarga amortizatsiya hisoblash va hisobda aks ettirishning to'g'riligini tekshirish.
37. Tugallanmagan ishlab chiqarishni tekshirish.
38. Tayyor mahsulotlarni jo'natish bo'yicha muomalalar to'g'riligining auditi.
39. Bankdagi maxsus schyotlardagi pul mablag'lari sintetik hisobining to'g'riligi va to'liqligini tekshirish.
40. Ta'sis hujjatlarini tekshirish.
41. Sintetik va analitik hisob registrlari auditi.
42. Davr xarajatlarini tekshirish.

| | |
|---|---|
| | 43.Moliyaviy faoliyat buyicha olingan daromadlar auditi.<br>44.Moliyaviy faoliyat bo‘yicha qilingan xarajatlar auditi.<br>45.Sof foyda (zarar) shakllanishi auditi.<br>46.Asosiy vositalar auditi<br>47.Tovar moddiy zahiralar auditi<br>48.Majburiyatlar auditi<br>49.Uzoq muddatli aktivlar auditi<br>50. Mol yetkazib beruvvchilar va pudratchilar bilan hisob-kitoblar auditi. |
| **3.** | **V Ta’lim natijalari / Kasbiy kompetentsiyalar**<br>**Talaba bilishi kerak:**<br>- auditorning kasbiy faoliyati, audit fanining ob’ekti, predmeti va usullari, auditorlik faoliyatini tashkil qilishning huquqiy va tashkiliy asoslari, auditorlik kasbiga malakaviy va axloqiy talablar, auditda muhimlik tushunchasi va auditorlik riski, auditorlik tekshiruvlarini rejalashtirish, auditorlik dalillarni to’plash jarayoni, audit xalqaro standartlari tarkibini, xalqaro buxgalterlar federatsiyasi (XBF) rivojlanish tarixi, rivojlangan mamlakatlarda auditorlik faoliyatining xususiyatlari, auditorlik |
| | tekshiruvlarini yakuniy bosqichi, auditorlik hisoboti va xulosasini tuzish, uzoq muddatli aktivlar auditi, joriy aktivlar auditi, majburiyatlar auditi, xususiy kapital auditi va moliyaviy natijalar auditining xususiyatlari haqida ***tasavvur ega bo’lishi***; (**bilim)**<br>- talaba audit jarayonida auditorlik usullari va amallarini qo’llash, xorijiy auditorlik kompaniyalari ish tajribalaridan O’zbekistonda foydalanish imkoniyatlarini belgilash, auditorlik tekshiruvi natijalari bo’yicha auditorlik hisoboti va xulosasini tuzish va audit xizmati ish samaradorligi baholash xususiyatlarini ***bilishi va ulardan foydalana olishi;*** **(ko’nikma)**<br>- auditda muhimlik va risk darajalarini aniqlash, auditorlik tekshiruvini rejalashtirish, biznes jarayonlar bo’yicha auditorlik tekshiruvni tashkil etish, tekshiruvlar jarayonida tahliliy amallarni qo’llash, auditning xalqaro standartlari asosida muhimlik va risk darajalarini aniqlash, auditning xalqaro standartlari asosida ichki nazorat tizimini o’rganish va baholash, auditorlik tekshiruvining yakuniy ishchi hujjatlarini shakllantirish, auditorlik hisoboti va auditorlik xulosasini tayyorlash va tuzish bo’yicha ***ko’nikmalariga ega bo’lishi kerak.*** **(malaka)**<br>- |
| **4.** | **VI. Ta’lim texnologiyalari va metodlari:**<br>• ma’ruzalar;<br>• interfaol keys-stadilar;<br>• seminarlar (mantiqiy fiklash, tezkor savol-javoblar);<br>• guruhlarda ishlash;<br>• taqdimotlarni qilish;<br>• individual loyihalar;<br>• jamoa bo’lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar. |
| **5.** | **VII. Kreditlarni olish uchun talablar:**<br>joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo’yicha yozma ishni |

| | |
|---|---|
| **6.** | **Asosiy adabiyotlar**<br>1. Tuychiyev A., Qo'ziyev I., Avloqulov A., Sherimbetov I., Avazov I. Audit. Darslik. – T.: "Iqtisod-Moliya", 2019. – 530 b.<br>2. Tuychiyev A., Qo'ziyev I., Avloqulov A., Masharipov O., Avazov I. Audit. Elektron darslik. – T.: TMI. 2021 y.<br>3. Hamdamov B.Q. Auditning xalqaro standartlari. Darslik. – T.: "Iqtisod-Moliya", 2020. – 268 b.<br>4. Ilhamov Sh.l. Audit. Darslik. 1-qism.-T.: "IQTISODIYOT". 2018. -295 b.<br>5. M.M. Tulaxodjaeva, Sh.I.Ilhamov, K.B.Axmadjonov,Sh.N Fayziev, M.X.Xodjaeva, M.S.Tulaev. «Audit» (darslik). Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti.Iqtisodiyot, 2011 y. – 581 b.<br>**Qo'shimcha adabiyotlar**<br>6. O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 25 fevraldagi "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi O'RQ -677-sonli Qonuni.<br>7.O'zbekicton Pecpublikaci Ppezidentining "O'zbekicton Pecpublikacida auditoplik faoliyatini yanada pivojlantipish chopa-tadbiplapi to'g'picida"gi Qapopi, 2018 yil 19 centyabp PQ-3946-con.<br>8.O'zbekicton Pecpublikaci Ppezidentining "Moliyaviy hicobotning xalqapo ctandaptlapiga o'tishning qo'shimcha chopa-tadbiplapi to'g'picida"gi Qapopi, 2020 yil 24 fevpalda PQ-4611-con.<br>9.Қўзиев И., Туйчиев А., Хожиев М., Якубов М. Внутренний аудит. Учебное пособие. –Т.: "иқтисод-молия", 2019. – 420 с.<br>10.Qo'ziyev I.N., Hamdamov B.K., Avazov I.R., Ochilav F.Sh. Auditning xalqaro standartlari. Elektron darslik. –T.: TMI. 2021 y.<br>11.Р.П.Булыги. Аудит.учебник для бакалавров.М.: ЮНИТИ-ДАНА.2015, -431 стр.<br>12.Tulaxodjayeva M.M., Ilhamov Sh.I. Audit. O„quv qo„llanma. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti. – T.; 2012. |
| | **Axborot manbalari**<br>1. www.lex.uz (O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi)<br>2. http://www. ziyonet.uz (Axborot ta'lim tarmog'i)<br>3. https://www.naab.uz. – O'zbekicton Pecpublikaci Buxgalteplap va auditoplap milliy acociatsiyacining pacmiy cayti<br>4. http://uzaudit.uz- O'zbekicton Respublikasi Auditorlar Palatasi rasmiy Sayti<br>5. www.mf.uz (O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi rasmiy sayti). |
| **7.** | Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan. |
| **8.** | **Fan/modul uchun ma'sular:**<br>A.T.Alikulov - QaRMII, "Buxgalteriya hisobi va audit" kafedrasi mudiri dotsent,<br>O.N.Xolnurodov – QaRMII, "Buxgalteriya hisobi va audit" kafedrasi katta o'qituvchisi. |
| **9.** | **Taqrizchilar:**<br>S.R.Egamberdiyeva - QaRMII, "Buxgalteriya hisobi va audit" kafedrasi dotsenti, i.f.n<br>.B.Qurbonov - QaRMII, "Innovatsion iqtisodiyot" kafedrasi kafedrasi dotsenti, i.f.n |